

## **SHARQ RENESSANS ALLOMALARINING JAMIYAT VA DAVLAT BOSHQARUVI TARAQQIYOTIGA OID QARASHLARINING BUGUNGI KUNDA AHAMIYATI.**

*O'ZDJTU, Siyosatshunoslik yo 'nalishi 2-kurs talabasi,  
Sharifjonov Jalilbek Anvarovich*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada IX-XII asr Sharq uy g'onish davri mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, uy g'onish davri allomalarining davlat boshqaruvi va siyosati, jamiyat haq-huquqlari, inson kamoloti va ijtimoiy masalalariga oid ilmiy meroslari tahlil qilinishi bilan bir qatorda ushbu g'oya va fikrlardan hozirgi zamonamizda oqilona foydalish kerak ekanligi bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, davlat boshqaruvi, inson mohiyati, ideal davlat, tabiat, ijtimoiy hayot,adolat, xulq-atvor.

**Abstract:** This article talks about the socio-political views of the thinkers of the Eastern Renaissance of the IX-XII centuries and their importance today. Also, along with the analysis of the scientific heritage of Renaissance scholars on state management and politics, society's rights, human development and social issues, it is stated that these ideas and thoughts should be used wisely in our time.

**Key words:** society, state administration, human nature, ideal state, nature, social life, justice, behavior.

**Аннотация:** В данной статье говорится о общественно-политических взглядах мыслителей Восточного Возрождения IX-XII веков и их значении в наши дни. Также, наряду с анализом научного наследия ученых эпохи Возрождения по вопросам государственного управления и политики, прав общества, человеческого развития и социальных проблем, утверждается, что эти идеи и мысли следует разумно использовать в наше время.

**Ключевые слова:** общество, государственное управление, человеческая природа, идеальное государство, природа, общественная жизнь, справедливость, поведение.

Uy g'onish davri - insoniyat tarixidagi ijtimoiy-ma'naviy yuksalish, ilm-fan rivojini ifodalash uchun XVIII asr ma'rifatparvar faylasuflari tomonidan kiritilgan tushuncha hisoblanadi. Bu davr insoniyat ma'naviy taraqqiyotidagi ijobjiy o'zgarishlar yuz bergen davr deb tushuniladi. Jumladan, Sharqda Abu Ali ibn Sino,

Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Far g‘oniy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad Yassaviy, Ismoil Buxoriy, Mirzo Ulu g‘bek va boshqa buyuk siymolar keying avlod uchun noyob meros qoldirgan.

Sharqda IX-XII asrlarda ya’ni Renessans davrida bir qator mutafakkirlar falsafiy-siyosiy g‘oyalari g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ularning falsafiy-siyosiy g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Sharq allomalarining davlat boshqaruvi, jamiyat, fuqarolik jamiyat, huquq to‘ g‘risidagi qarashlari asosan din bilan bo g‘liqligiga ham guvoh bo‘lishimiz mumkin. Chunki O‘rtal Osiyo falsafasi Zardushtiylik, keyinchalik islam dini ta’sirida shakllanganligi barchamizga ma’lum. Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqa mutafakkirlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi; olam, odam va jamiyat tushunchalarini yaxlit shaklda tadqiq qilib, yangi qonuniyatlar ochdi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, dinga asoslangan holda fozil jamiyat, fozil davlat va komil inson nazariyasini ishlab chiqishdi. Buyuk allomalarimizning noyob falsafiy asarlari, jamiyat, inson va davlat boshqaruvi to‘ g‘risidagi fikrlari bugungi hayotimiz uchun ham zarur ekanligini anglashimiz zarurdir. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respubikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish lozim: “Tadqiqotchi-olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisoli po‘rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahoning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan Sharq uy g‘onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan”[1].

Darhaqiqat, Sharq uy g‘onish mutafakkirlari olib borgan ilmiy izlanishlar mahsuli bo‘lgan ilmiy yutuqlar va buyuk izlanishlar nafaqat sharq olamida nafaqat dunyoning qolgan boshqa mintaqalarida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga turki bo‘lgan.

Musulmon Sharqida Arastudan keyin “Ikkinchi muallim” unvoniga tuyassar bo‘lgan mashhur faylasuf, mutafakkir va qomusiy olim Abu Nasr Farobiy hisoblanadi. Farobiy butun umri davomida ko‘plab fanlar doirasida o‘z faoliyatini olib borgan ulu g‘ mutafakkirdir. Xususan, Farobiy falsafa, tibbiyot, riyoza, mantiq, matematika, siyosat va shu kabi bir qator fanlarda chuqur izlanish va tadqiqotlar olib borgan. Olimning “Jamiyatni o‘rganish haqida”, “Urush va tinch totuv yashash haqida”, “Qonunlar haqida kitob”, “Masalalar mohiyati”, “Falsafaning ma’nosи va kelib chiqishi”, “Baxtga erishish haqida risola”, “Fozil odamlar shahri” va “Fazilatli xulqlar” kabi bir qator asarlari insonning ma’naviy

kamoloti, jamiyatning huquq va burchlari, adolatli hukmronlik qilish, o'sha davrning falsafiy qarashlari bilan bir qatorda, siyosatga doir mavzularni o'z ichiga olgan. Abu Nasr Farobiyning yuqorida sanab o'tilgan asarlari orasida "Fozil odamlar shahri" nomli asari Yaqin, O'rta va Uzoq Sharqda azaldan sevib o'qib kelinayotgan kitob hisoblanadi. Ushbu asarda jamiyatdagi ijtimoiy axloqiy munosabatlar, ta'limtarbiya, odob-axloq masalalari, adolatli jamiyatga erishish yo'llari, va shuningdek, oqilona davlat siyosati olib borish kabi muhim masala va maslahatlar o'rin olgan. Qomusiy olim o'rta asrlar sharoitida jamiyat tabiiy ravishda kelib chiqadi, inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olishi mumkin emas degan fikrni asoslab beradi. "Har bir inson, —deydi Farobi — o'z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirlita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tu g'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan nasralarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerni aholi yashaydigan qismiga o'mashdilar"[2].

Ulu gumanist, insonparvar faylasuf sifatida Farobi insonlarning ya'ni jamiyatning odob-axloqi va tarbiyasini ham muhim deb hisoblaydi. U inson qadr-qimmatini kansituvchi va o'zga mamlakatlarni bosib olishga asoslangan jamiyatga qarshi chiqadi. Mutafakkir odamlarni tinch-totuv va o'zaro hamkorlikda yashashga, insonparvar bo'lishga da'vat etadi. "Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlan g'ich asos insoniylikdir, shuning uchun odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari uchun o'zaro tinchilikda yashashlari lozim"[3], deydi mutafakkir.

Bundan ko'rinish turibdiki, jamiyatning tinch-totuv yashashligi uchun eng dastlabki o'rinda, insonlarning insoniyligini belgilab beruvchi belgi bu uning tarbiyasi hisoblanadi. Darhaqiqat, jamiyat tarkibidagi odamlar qanchalik chiroqli xulq-atvorli bo'lsa, ularning o'rtasida ahillik, hamkorlik va tinch-totuvlik shunchalik ko'p bo'ladi.

Alloma shu bilan birgalikda o'zining "Baxt-saodatga erishuv yo'llar haqida risola" asarida ham davlat boshqaruvi va rahbarlik faoliyatiga oid o'z qarashlarini bayon etgan. Farobiyning fikricha, "Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi". Mutafakkir davlatni har tomonlama yetuk, yetuk hislatlarga ega bo'lgan, xalq tomonidan saylangan kishilar boshqarishi lozimligini aytadi. Davlatni yetuk kishilar boshqarsagina fazil jamiyat, fazil shahar, fazil mamlakat qaror topadi. Fazil jamiyat, fazil davlat shunday bo'ladiki, bu jamiyatning har bir a'zosi ilm-fanni egallash bilan

shu g'ullanadi[5]. Bu bilan olim davlat boshqaruvida har tomonlama komillikka intilgan, salohiyatli shaxsning o'rni muhimligi va aynan shunday shaxsgina jamiyatni ravnaq topishiga sababchi bo'lishiga ishora qilgan.

Darhaqiqat, hozirgi zamonaviy dunyoda insoniyat ongiga ta'sir etuvchi kuchlar ko'p kuzatilmoqda. Bunday kuchlardan himoyalanish uchun avvalo inson o'zining tafakkuridan kelib chiqib ish tutadi. Shunday ekan, Farobiy bobomizning inson tarbiyasi va uning dunyodagi faoliyatiga oid fikr va qarashlari mana necha asrlar o'tibdiki, hozirgi zamonamizda o'z mohiyatini to'laligicha saqlab kelayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

X asrda yashab ijod qilgan, zamonasining deyarli barcha ilmlarini puxta egallagan buyuk olim va faylasuf Abu Rayhon Beruniydir (973-1048). Abu Rayhon Beruniyning asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan chunki u o'z asarlarida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Abu Rayhon Beruniy xalqlar o'rtasida umumiyligi tinchlik va do'stlik uchun kurashdi. Urushlar natijasida madaniyat va fan erishgan yutuqlar yo'q bo'lib ketishini ta'kidlaydi. O'zining nodir "Hindiston" asarida urushlarni, xalqlar o'rtasidagi mojarolarni qoralab, urush kelib chiqishining asosiy sababi xalqlarning bir birini tarixini bilmasligidandir deya ta'kidlagan. Buyuk mutafakkir ham tarix fanining davlat uchun naqadar muhim ekanligini izohlagan. Abu Rayhon Beruniyning insonlar va jamiyat to'g'risidagi qarashlari insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan edi. Bu qarashlar jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarga aql ko'zi va mulohazali tafakkur bilan yondashish natijasi edi. Uning qarashlarida jamiyat taraqqiyotida ilm-fan eng asosiy omil deya aytildi ya'ni fan jamiyatni tashkil qila oladigan; ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi kuchdir va ilm-fan tufayli jamiyatda axloqiy asoslar paydo bo'ladi.

Allomaning fikricha, agar jamiyatda yaxshi insonlar bo'lsa, jamiyat yuksaladi, rivojlanadi. Ammo lekin mamlakatda yomon odamlar soni ko'p bo'lsa, jamiyat yuksalishdan yoki rivojlanishdan orqada qoladi. Beruniy jahonda birinchi bo'lib, inson va tabiat, odam va olam o'rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan sifatida talqin qiladi. Turli afsonalar, asotirlarga ishonmaydi va muammoni ilmiy tadqiq qilish yo'lidan boradi. Jumladan, u (odamlar) tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, (odam) yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir. Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tu g'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan haligi iboralar

ko‘payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan, deydi.[5]

Bundan ko‘rinib turibdiki, insonlar bir-biridan farq qiladi va ularning farq qilishi ularning har xil oilada tu g‘ilganligi emas, balki ularning yashayotgan joylari ham katta ahamiyatga ega. Ya’ni ular yashaydigan ma’lum bir joyda tuproq, suv va havo yetarli bo‘lsa va boshqa bir joy bundan mustasno bo‘lsa, u odamlar bir-biridan farq qiladi. Odamlar to‘planib kichik bir jamiyatni hosil qiladi va ularning o‘z tili, o‘ziga xos turmush tarzi rivojlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Uy g‘onish davrida Sharqda deyarli barcha mutafakkirlar ijtimoiy tuzumni tubdan rivojlantirishni istaganlar va bu borada o‘z fikrlarini bayon qilgan. Biz buyuk mutafakkirlarimizning jamiyat, davlat boshqaruvi va yana muhim fikrlarini yanada kengroq tahlil qilib, o‘rganganlarimizni amaliy hayotda ham qo‘llashimiz kerak va iloji boricha davlatni har tomonlama kamchiliklarsiz, inson haq-huquqlarini hisobga olgan holda boshqarilishi kerak. Buning uchun mamlakatda yanada ko‘proq shart-sharoitlar bilan ta’milanishi kerak va hali o‘rganilmagan adabiyotlarni o‘rganishga e’tibor qaratishimiz lozim.

Mamlakatimizda siyosiy faolligini oshirish, Vatan tuy g‘usi va milliy qadriyatlarni, an’alarimizni saqlash maqsadida buyuk allomalarimizning nodir asarlarni yanada ko‘proq chop etish, kutubxona va muzeylar sonini yanada oshirish, yoshlarni bu asarlarni o‘rganishiga undash va shu bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish, milliylikni targ‘ib qiladigan film, roliklar yaratish va uni keng ommaga namoyon etish orqali biz mutafakkirlarimizning asarlarida keltirilgan adolatli jamiyatni barpo etishimiz mumkin. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan bu boradagi islohotlar ham ma’lum darajada ijobiy natijalar ko‘rsatmoqda. Masalan, teleradiokanallar orqali yurtimiz allomalarining ibratli hayoti va boy ilmiy-ma’naviy merosi haqida ko‘rsatuvalar va davra suhbatlari tashkil etilganligi va h.k lar bunga yaqqol misol bo‘lishi mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, Uy g‘onish davri yangi davr uchun asos bo‘ldi va keyingi yangi davrda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Chunki bu davrda bizning buyuk mutafakkirlarimiz jahon hamjamiatiga munosib o‘z hissasini qo‘shti.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Elektron manba: <https://darakchi.uz/oz/4498>.
2. Farobiy "Fozil shahar aholisining fikrlari" risolasidan. Risolalar. –T.: "Fan". 1975. 134-bet
3. O’sha kitob, 134-bet.
4. Ubaydulla Uvatov. “Buyuk yurt allomalari”. –T.: “O‘zbekiston” NMIU. 2016. 85-bet.
5. A.Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. -T., Fan, 1968. 16-17-bet.